

MAMLAKATIMIZDA YANGI TURIZM YO’NALISHLARI VA ULARDA XIZMAT KO’RSATISH SOHALARI “BRENDLARINI” SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Ashurova Muborak Xayrullayevna
Buxoro davlat universiteti v.v.b. dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda yangi turizm yo'nalishlarini rivojlantirish va ularning xizmat ko'rsatish sohaslarida milliy hamda hududiy brendlarni shakllantirish istiqbollari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida gastroturizm, ekoturizm, tibbiy turizm, MICE-turizm, ziyorat turizmi va ijodiy turizm kabi zamonaviy yo'nalishlar tahlil qilinib, har bir yo'nalishda raqobatbardosh brend yaratishning nazariy-metodologik asoslari ochib berilgan. Maqolada jahon turizm bozorida brend menejmentining dolzarb tendensiyalari, xususan joy brendingi (place branding) va manzil brendingi (destination branding) konsepsiyalari O'zbekiston sharoitiga adaptatsiya qilingan holda ko'rib chiqilgan. Buxoro, Samarqand, Xiva, Farg'ona vodiysi va Orol bo'yi mintaqalarining brendlash salohiyati baholangan.

Kalit so'zlar: turizm brendi, manzil brendingi, joy brendingi, gastroturizm, ekoturizm, tibbiy turizm, MICE-turizm, turizm xizmatlari sifati, raqamli marketing, O'zbekiston turizmi.

Mamlakatimizda xususan Buxoro viloyatida xorijiy brendlarning mehmonxona industriyasida 2023-yilning birinchi choragiga qadar bo'lgan davri ichida deyarli sezilmagan, ya'ni bizning mehmonxona industriyamiz to'laqonli “infant industry” darajasida bo'lib ingliz tilidan talqin qilinganda chaqaloq, mahalliy industriya degan ma'nolarda keladi. Buning sababi o'laroq xorijiy investorlarga mamlakatning ma'lum bir muddat yopiq bo'lganligi va tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy yirik korporatsiyalar ishtiroki mahalliy bozorga jiddiy shikast yetkazishidan himoyalanganligi ko'rsatilishi mumkin. Hatto jahonning ko'plab rivojlangan mamlakatlari ham mahalliy bizneslarni qo'llab quvvatlashga bor e'tiborlarini qaratayotgan bir vaqtda mamlakatimiz hududi xorijiy nomdor brendlarga joy ochib berilishi mustaqilligimizning ilk 20 yili ichida mantiqan ham noto'g'ri bo'lar edi.

Biroq yurtimiz tadbirkorlarining layoqati va saviyasi oshib borayotganini anglab yetgan hukumatimiz va muhtaram yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning tashabbuslari bilan endilikda mamlakatimiz bozori bosqichma bosqich rivojlangan davlatlar brendlariga ochilib bormoqda. Bu sa'y harakatlarning mazmunida esa raqobatbardoshlikni oshirish xizmatlar sifati va mahsulotlar yaroqliligini hamda sifatini ko'tarish kabi muhim global iqtisodiy tushunchalar yotadi.

Xorijiy brendlarning mamlakat mustaqilligiga erishishi bilanoq bozorlarimizni egallashi mamlakat iqtisodiy tanazzuliga olib kelishi mumkin edi. Chunki har qanday investor ham xorijiy brend ham investitsiya qilgan miqdoridagi iqtisodiy kapitalni bir necha barobar ortig'I bilan olib ketishi kafolatlanishi talab qilinar edi. Biroq endilikda teng raqobat ruhida borishi kuzatilayotgan iqtisodiy davrda bu kabi muammolardan qo'rqmasa ham bo'ladi chunki mamlakat iqtisodi o'zini ancha o'nglab oldi, mahalliy bizneslar nafaqat xizmat ko'rsatish sektorlarida balki ishlab chiqarish sohaslari bo'yicha ham agro sanoat bo'yicha ham ancha ilg'orladi.

Buxoro viloyati Buxoro shahrida 150 dan ortiq katta va kichik mehmonxonalar o‘z faoliyatlarini yo‘lga qo‘ygan bo‘lib ularning barchasida shakllangan “brend” tushunchasi o‘z ichiga:

- Mahalliylik
- Milliylik
- G‘arb madaniyati uyg‘unligi
- Qadriyatlarimiz
- Arxitekturamiz
- Noyoblik
- Madaniy merosimiz kabi xususiyatlarni olishi sir emas.

Bu bilan O‘rta Osiyodagi o‘ziga xoslik aks ettirilishi mumkin bo‘lib unda ko‘zlangan bozor juda ham kichik mijozlar guruhini o‘z ichiga oladi. Ya‘ni globallashuv o‘z cho‘qqisiga chiqqan bir paytda bizning hudud o‘ziga xoslikni targ‘ib qilib bizdagi mehmonxona konsepsiyalari butun hudud bo‘yicha bir xillikni takrorlayotgan edi. Brend yaratishda ham asosiy e‘tibor aynan shu kabi xususiyatlarga qaratilgan bo‘lib, mamlakatimizda tor doiradagi mijozlar guruhi nishonga olinganligicha qolib ketmoqda vaholanki hudud potentsiali juda yuqori bo‘lib vohada Islomiy joylashtirish vositalari konsepsiyalari, zamonaviy shahar joylashtirish vositalari konsepsiyalari, ov va yovvoyi tabiat bilan uyg‘un mehmonxonalar konsepsiyalari kabi yangicha g‘oyalarga boy brendlar yaratish mumkin.

2023-yilning dekabr oyida bo‘lib o‘tgan birinchi xalqaro turizm forumida Buxoro viloyati Turizmni rivojlantirish departamenti investitsiyalar jalb qilish va yangi turistik marshrutlarni shakllantirish bo‘yicha sobiq mutaxassis N.Sulaymonov bilan bo‘lib o‘tgan suhbatda shu ma‘lum bo‘ldiki, hududda eko-turizm, ov turizmi hamda zamonaviy sun‘iy rezortlar turizmini yo‘lga qo‘yish kabi yirik loyihalar departament xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan ekan. Buning ustiga turizmni rivojlantirish bilan mehmonxona bizneslari rivojlanadi biroq infratuzilmalarsiz mehmonxona brendlarining eng mashhurlari hududga olib kelingan taqdirda ham soha rivojlanishi juda sekin boradi deydi u.

Diniy turizmi: Diniy turizmning yirik bir bo‘lagi hisoblangan – islom turizmi 2020-yildan boshlab Buxoro shahri Islom madaniyati poytaxti bo‘lishi ko‘zda tutilayotgan bir paytda ziyorat turizmining katta oqimi hududga oqib kelishini anglatadi. Boz ustiga 1,4 milliarddan ortiq islom dini vakillari – musulmonlar yer yuzi aholisining 6 dan 1 qismini tashkil etayotgan bir paytda sayohatchilarni mamlakatimiz tomon yo‘naltirilishi qiyin masala emas shunchaki bizda ularni qabul qilib bilish salohiyati yetarlicha yo‘lga qo‘yilsa bas deya ta‘kidlaydi Javohir Nuriddinov. Buxoro viloyati hududida joylashgan “7 pir” dasturi asosida turlar tashkillashtirish infratuzilmani yaxshilash maqsadida yo‘l usti temir yo‘llari loyhasini realizatsiya qilish hududning turistik potensialini oshirib yuborgan bo‘lar edi deydi u.

Bundan tashqari yer yuzida 250 milliondan ortiq “Naqshbandiya” tariqati a‘zolari bo‘lib agar imkoniyat yatib berilsa yiliga 10 milliondan turist faqat ziyorat turizmi uchun hududga tashrif buyurganda ham kamida 25 yil mobaynida turizm sohasini birgina ziyorat turizmi bilan tortib turish mumkin bo‘ladi. Bunda islomiy mehmonxona konsepsiyalari va brendlari yaratilishi hududda ulkan o‘zgarishlarning debochasi bo‘lishi kutiladi deya ta‘kidlaydi u. Shunday ekan mamlakatimizda xorijiy mashhur brendlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish – ziyorat

turizmini rivojlantirish va shu orqali yangi tarmoqni yangi mablag’ oqimiga aylantirish, islomiy mamlakatlar xizmat ko’rsatish sohalari brendlari respublikamizga olib kirish yoki hududda mavjud bo’lgan brendlarning xorijiy brendlilar bilan hamkorligini ta’minlash orqali kechadi.

Eko-turizm: Mamlakatning nafaqat Buxoro vohasida balki butun respublika sarhadlari bo’yicha iqtisodning agro tarmog’i yaxshi rivojlangan bir paytda Eko-turizmni tabiat sayllarini shakllantirishning ham ajoiib kelajagi bor. Beton junglilaridan bezigan g’arb aholisi ko’proq yashil tabiat bag’ridan, serquyosh o’lkalarning shakardan shirin mevalaridan, oynaday tiniq tabiiy suv havzalaridan bahramand bo’lgisi keladi. Shunday yuqori ehtiyojlar qamrovida qolgan xalqaro mehmonxona brendlari o’lkamizga, hududda faoliyat olib borayotgan mehmonxonalariga hamkorlik qilish maqsadida murojaat qilayotganlari shubhasiz. Bunda bizning mehmonxonalardan talab qilinadigan infratuzilmani shakllantirish bo’lsa xorijiy investorlar tomonidan kundalik mehmonxona faoliyatini shakllantirish menejment prinsiplarini yo’lga qo’yish hamda kuchli brend yaratish kabi xizmatlar talab qilinadi.

Ov turizmi: Ov turizmi konsepsiyasi ham hudud mehmonxona industriyasi uchun yangilik bo’lib unga ko’ra Buxoro hududing Qorako’l tumani hududi joylashgan “Jayron Eco Markazi” atrofida uni tashkillashtirish g’oyasi ilgari surilgan. Yovvoyi to’ng’iz va kaklik ovi kabi ov jarayonlarida qatnashish istagi baland bo’lga Birlashgan Arab Amirliklari va Qatar fuqarolari hududga bir necha haftalab qolish uchun kelishadi va qish mavsumida ov qilib xordiq chiqarishadi. Bu kabi ajoyib imkoniyatlardan foydalangan holda ov turizmini nafaqat Buxoro hududi uchun balki butun dunyo bo’ylab keng targ’ib qilishda yirik mehmonxona brendini yaratish moliyaviy jihatdan mantiqiy yondashuv bo’lar edi.

Zamonaviy sun’iy rezortlar turizmi: Zamonaviy sun’iy rezortlar ya’ni sun’iy ko’llar yaratib uning sohillari bo’yida dam olish maskanlarini tashkillashtirish konsepsiyasi dunyo mehmonxona industriyasi uchun yangilik emas.

“World Island Dubai” – Dubay shahrining rejadan tashqari loyihalaridan biri bo’lib, Dubayning eng yaxshi loyihalovchilaridan biri Nakhil tomonidan asos solingan. Dubayning qirg’oqlaridan tashqarida joylashgan bu loyiha 300 dan ortiq kichik sun’iy orolchalarni o’z ichiga olib ular davlatlar va qit’alar ko’rinishida ishlangan. Birlashgan Arab Amirliklarining eng o’ziga xos loyihalaridan bir bo’lgan bu orollar to’plami eng qiziqarli va ajoiib turistik yo’nalish (marshrut) hisoblanadi. World Island Dubai xuddi dunyo xaritasiga o’xshatib ishlangan bo’lib shaga’l toshlar va ishlov berilgan mayin tuproqlar bilan bezatilgan. Birlashgan Arab Amirliklarining bosh vaziri hamda Dubay shahrining rasmiy monarxi hisoblangan Shayx Mohammed bin Rashid Al Maqtum Nakhilning loyahasini avval boshdanoq kelajakda Dubayning dunyo turizm xaritasidagi rasmiy imzosi bo’ladi deb olqishlagan edi.

Shu kabi loyihalar bizning go’zal va navqiro Buxoromizda bo’ladigan bo’lsa bu ham mehmonxonalar ham hudud ham respublikamizning jahon turizm xaritasida bizning o’z imzomiz bo’lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".
2. Kotler Ph., Bowen J.T., Makens J.C., Baloglu S. Marketing for Hospitality and Tourism. — 8th ed. — Pearson, 2021. — 682 p.
3. Morgan N., Pritchard A., Pride R. Destination Branding: Creating the Unique Destination Proposition. — 2nd ed. — Butterworth-Heinemann, 2004. — 314 p.
4. Anholt S. Competitive Identity: The New Brand Management for Nations, Cities and Regions. — Palgrave Macmillan, 2007. — 160 p.
5. Pike S. Destination Marketing: An Integrated Marketing Communication Approach. — 3rd ed. — Routledge, 2020. — 432 p.
6. UNWTO. Tourism and Branding: Policy Recommendations for Developing Countries. — Madrid: UNWTO, 2022. — 96 p.
7. Абдуллаев С.С. Ўзбекистонда экотуризмни ривожлантириш: муаммолар ва ечимлар. — Тошкент: Фан, 2023. — 196 б.